

## 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar - dekabr oylarida Jizzax viloyatida jami **1273,4 mlrd.** so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **104,4 %**ni tashkil etdi.



Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan **79,8 mlrd.so'm** qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **6,3 %**ni hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,4 %**ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **58,6 %** i yoki **746,4 mlrd.so'm** to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **111,3 %**ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **35,1 %** yoki **447,2 mlrd.so'm** to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **93,0 %**ni tashkil etdi.

### 2018 yilning yanvar-dekabr oylaridagi qurilish ishlari tarkibi

#### Yirik pudrat tashkilotlari

-hajm	79,8 mlrd.so'm
-o'sish sur'ati	112,4 %

#### Kichik korxonalar va mikrofirmalar


-hajm	746,4 mlrd.so'm
-o'sish sur'ati	111,3 %

#### Norasmiy sektor

-hajm	447,2 mlrd.so'm
-o'sish sur'ati	93,0 %

2018 yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda bajarilgan jami pudrat ishlarining qariyb 58,6 foizi kichik biznes sub'yektlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2018 yilning yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari tarkibi (jamiga nisbatan %da)**




Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi 6,3 %ni tashkil etdi. Viloyatda asosan qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, jami qurilish ishlarining 58,6 %ni tashkil etdi yoki 746,4 mlrd.so‘m to‘g‘ri keldi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 111,3 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan pudrat ishlari hajmi 447,2 mlrd. so‘mni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmning 35,1 %iga teng bo‘ldi. Shu bilan birga o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 93,0 %ni tashkil etdi.




**2018 yilning yanvar-dekabr oylarida  
shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari  
(jamiga nisbatan %da)**



Viloyatda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Sharof Rashidov tumanida (72,5 %), Jizzax shahrida (69,6 %), Paxtakor tumanida (67,3 %), Zarbdor tumanida (53,8 %), G'allaorol tumanida (52,0 %) to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Mirzacho'l tumanida – (7,4 %), Forish tumanida (26,9 %) kuzatildi. Bu hududdagi qurilish ishlarining asosiy qismi norasmiy sektor hissasiga to'g'ri keldi – hududdagi jami qurilish ishlarining 92,6 %, Forish tumanida 73,1 %ini tashkil etdi.

**2018 yilning yanvar-dekabr oylarida  
shahar va tumanlar qurilish ishlarining o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)**



Qurilish ishlarining shahar va tumanlar kesimida eng yuqori o'sish sur'ati Paxtakor tumani hamda Mirzacho'l tumanlarida kuzatildi.

Mirzacho'l tumanida "Obod qishloq" dasuri bo'yicha amalga oshirilayotgan qurilish ishlarining jadal borishi tufayli o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,5 foiz bo'lishi ta'minlandi.

Paxtakor tumanida yuqori o'sish sur'ati, yani 114,8 %i kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan qurilgan ijtimoiy soha ob'ektlari va boshqa loyihalarning bajarilishi natijasidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmidan 78,5 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,3 % punktga ko'paydi.

Fuqarolik ob'yektlari qurilishi hajmi joriy davrda 15,2 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,4 % punktga kamaydi, maxsus qurilish ishlari hissasiga esa 6,3 %ga to'g'ri keldi.


1-jadval

**2018 yilning yanvar-dekabr oylarida  
shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlar tarkibi**

*(mlrd.so'm)*

	Jami qurilish ishlari	shu jumladan qurilish ishlari tarkibi bo'yicha		
		yirik pudrat tashkilotlari	kichik korxonalar va mikrofirmalar	norasmiy sektor
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1273,4</b>	<b>79,8</b>	<b>746,4</b>	<b>447,2</b>
Jizzax shahar	522,2	71,0	363,7	87,5
<b>tumanlar:</b>				
Arnasoy	20,7		6,7	14,0
Baxmal	64,3		25,5	38,8
G'allaorol	93,2		48,4	44,8
Sharof Rashidov	161,0		116,7	44,3
Do'stlik	38,8		13,5	25,3
Zomin	67,2		28,7	38,5
Zarbdor	57,2		30,8	26,4
Zafarobod	22,1		1,6	20,5
Mirzacho'l	37,6	8,8	17,2	11,6
Paxtakor	95,8		64,5	31,3
Forish	60,0		16,2	43,8
Yangiobod	33,3		12,9	20,4

**2018 yilning yanvar-dekabr oylarida  
shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari**  
(mlrd.so'm)



Shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Jizzax shahrida 522,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Buning sababi Shahar qiyofasini tubdan yangilash, sotish uchun qurilayotgan ko'p qavatli uylar, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish ijtimoiy soha va ko'ngil ochish maskanlarini barpo etilayotganini takidlash mumkin.


Shu bilan bir qatorda qurilish ishlari yuqori sur'atlarda bajarilayotgan qurilish ishlari hajmi Sharof Rashidov tumanida kuzatildi. Bajarilgan qurilish ishlari 161,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Bajarilgan qurilish ishlarining asosini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan uylar qurilishi tashkil qilmoqda.

5-diagramma

### Yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarining Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %da




- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi ob'yektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi ob'yektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (mlrd.so'mda)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi ishlarining qurilish loyhalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallangan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 78,5 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatgichga nisbatan 1,8 % punktga ko'paydi.

Fuqarolik qurilishi ob'yektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 15,2 %ni tashqil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,6 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari xissasida esa 6,3 % to'g'ri keldi xamda o'tgan yildagi ko'rsatgichga nisbatan 0,2 % punktga kamaydi.



**Yanvar-dekabr oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi (mlrd. so'm)**


	<i>yanvar-dekabr</i>	
	<i>2017 y.</i>	<i>2018 y.</i>
<b>Qurilish ishlari hajmi</b>	<b>996,1</b>	<b>1273,4</b>
<i>shu jumladan:</i>		
davlat	113,8	75,6
nodavlat	882,3	1197,8

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1197,8 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari xajmining 94,1 %ni tashkil qildi.



7-diagramma

**Yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari, (jamiga nisbatan %da)**



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilagan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Jizzax shaxriga 41,0 %ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sharof Rashidov tumaniga 12,6 %, Paxtakor tumaniga 7,5 %i va G'allaorol tumaniga 7,3 %iga to'g'ri keldi.